

MILLIY AVTOMOBIL ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH: “O‘ZAVTOSANOAT” AJ MISOLIDA

Vahobov Dilmurod Sharof o‘g‘li

ANNOTATSIYA. O‘zbekistonda Milliy avtomobil ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini oshirish masalalari tahlil qilingan hamda O‘zavtosanoat AJ misolida amaliy yechimlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot davomida eksport faoliyatining nazariy asoslari, xalqaro tajribalar hamda milliy iqtisodiyotdagi o‘rni o‘rganilgan. Shuningdek, avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish tendensiyalari, eksport tarkibi va geografiyasi tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: eksport salohiyati, Milliy avtomobil ishlab chiqarish, avtomobilsozlik sanoati, eksport strategiyasi, xalqaro bozor, raqobatbardoshlik, innovatsiya, logistika, marketing, O‘zavtosanoat AJ.

ABSTRACT. The issues of enhancing the export potential of national manufacturing enterprises in Uzbekistan and develops practical solutions based on the case of O‘zavtosanoat JSC. The study examines the theoretical foundations of export activities, international experience, and their role in the national economy..

Keywords: export potential, national manufacturing, automotive industry, export strategy, international markets, competitiveness, innovation, logistics, marketing, O‘zavtosanoat JSC.

O‘zbekiston Respublikasida Milliy avtomobil ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini oshirish masalasi bugungi kunda iqtisodiy siyosatning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon xo‘jaligi tizimida raqobatning kuchayib borishi, global bozorlarning o‘zgaruvchanligi va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga talabning ortib borayotgani milliy iqtisodiyot oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bois mamlakatda eksport faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va sanoat tarmoqlarining xalqaro bozorlarga integratsiyasini kuchaytirish dolzarb masalaga aylangan.

Mazkur yo‘nalishda muhim normativ-huquqiy asoslardan biri sifatida PF-5286-son Farmon alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmon 2017-yil 15-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bo‘lib, “Mahalliy eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” deb nomlanadi. Mazkur hujjat orqali eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari yaratildi. Xususan, eksport faoliyatini moliyalashtirish, sug‘urtalash, logistika xarajatlarini kamaytirish, tashqi bozorlarga chiqishda marketing xizmatlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Shuningdek, sanoat

ishlab chiqarishini rivojlantirish va eksportbop mahsulotlar hajmini oshirishda PQ-2692-son Qaror muhim o'rin tutadi. Mazkur qaror 2016-yil 22-dekabrda qabul qilingan bo'lib, "2017–2021-yillarda sanoatni rivojlantirish dasturi to'g'risida" deb nomlanadi. Ushbu hujjat asosida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Davlat siyosati nuqtai nazaridan ham eksport salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, chuqur qayta ishlashni rivojlantirish va JST qoidalariga mos eksportni qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqish vazifalari belgilangan. 2023-yilgi davlat dasturida esa "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturini davom ettirish, yangi korxonalarini eksportga jalb qilish va qo'shimcha 100 ta eksportchini qo'llab-quvvatlash vazifasi qo'yilgan. WTO ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish jarayonini 2026-yilgacha yakunlash maqsadini saqlab qolgan; bu esa texnik reglamentlar, bojxona, subsidiyalar va savdo rejimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish orqali eksport muhitini yaxshilashi kutiladi.

Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir nuqtai nazaridan eksport salohiyatining oshishi kamida besh yo'nalishda ijobiy natija beradi. Birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi ortadi va doimiy xarajatlar ko'proq mahsulot hajmiga taqsimlangani uchun bir birlik mahsulot tannarxi pasayadi. Ikkinchidan, valyuta tushumlari ko'payadi va bu import qilinadigan uskunalar, butlovchi qismlar hamda texnologiyalarni moliyalashtirish imkonini kengaytiradi. Uchinchidan, eksportchi korxonalar odatda mehnat unumdorligi va ish haqi bo'yicha yuqoriroq natija ko'rsatadi, bu esa bandlik sifati va daromadlar o'sishiga xizmat qiladi. To'rtinchidan, eksport bozoriga moslashish mahsulot sifati, standartlashuv va innovatsiyani jadallashtiradi. Beshinchidan, eksportning diversifikatsiyasi makroiqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi, chunki ichki talab pasaygan davrda tashqi bozorlar kompensatsion rol o'ynaydi.

Mazkur nazariy xulosalarni "O'zavtosanoat" AJ misolida ham ko'rish mumkin. Kompaniya rivojlanish strategiyasida eksport bozorlarini kengaytirish, jumladan Ozarbayjonda Chevrolet avtomobillarini yig'ish loyihasining keyingi bosqichi sifatida CKD ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi model qatorlarini ishga tushirish va transformatsiyani davom ettirish vazifalari belgilangan. "UzAuto Motors"ning 2024-yil IFRS hisobotiga ko'ra, korxonaga guruhining jami tushumi 4,24 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan, shundan eksport savdolari 494,4 mln dollar bo'lgan; eksportning asosiy qismi Qozog'iston bozoriga to'g'ri kelgan. 2024-yilda kompaniya 314,9 mln dollar soliqdan oldingi foyda va 275,8 mln dollar sof foyda olgan. Bu raqamlar

avtomobilsozlikda eksport nafaqat sotuv kanali, balki foyda va korporativ barqarorlikni ta'minlovchi omil ekanini ko'rsatadi.

4.1-jadval

“O‘zbekiston Respublikasida 2020–2025 yillarda tashqi savdo ko‘rsatkichlari va sanoat ishlab chiqarishining tarkibiy dinamikasi”

Yil	Tashqi savdo aylanmasi (mlrd USD)	Eksport (mlrd USD)	Import (mlrd USD)	Sanoat mahsuloti (trln so'm)	Qayta ishlash sanoati ulushi (%)
2020	36,3	15,1	21,2	367,1	83
2021	42,1	16,6	25,5	451,6	83
2022	50	19,3	30,7	551,1	83,2
2023	62,6	24,4	38,1	655,8	84,4
2024	65,9	26,95	38,99	885,8	85,1
2025	81,17	33,81	47,35	1101,1	86

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (stat.uz), rasmiy yillik iqtisodiy hisobotlar (2020–2025)

O‘zbekiston iqtisodiyotida 2020–2025 yillar davomida tashqi savdo va sanoat rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini kompleks tarzda aks ettiradi. Unda tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari bilan bir qatorda sanoat mahsulotlari hajmi hamda qayta ishlash sanoatining ulushi keltirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, eksport hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, ayniqsa 2023–2025 yillarda sezilarli oshgan. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi eksport salohiyatining asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur jadval orqali iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar, xususan qayta ishlash sanoatining ulushi ortib borayotgani aniq ko‘rinadi. Bu holat O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tishga qaratilganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, import hajmining yuqoriligi tashqi savdo balansida manfiy saldo saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi, bu esa eksportni yanada rag‘batlantirish va ishlab chiqarishni chuqurlashtirish zarurligini anglatadi.

Mazkur tadqiqotda Milliy avtomobil ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini oshirish masalasi tizimli va kompleks yondashuv asosida o‘rganildi hamda uning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, eksport salohiyatini oshirish faqat tashqi savdo hajmlarining o‘sishi bilan emas, balki ishlab chiqarishning tarkibiy transformatsiyasi, innovatsion rivojlanish, logistika samaradorligi va boshqaruv strategiyalarining

takomillashuvi bilan uzviy bog'liq holda yoritildi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini baholashda an'anaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda yangi indikatorlar — eksport diversifikatsiya indeksi, logistika xarajatlari ulushi, innovatsion mahsulotlar ulushi, mehnat unumdorligi indeksi va eksport murakkablik darajasi kabi ko'rsatkichlar tizimli ravishda qo'llanildi.

Tadqiqot davomida 2020–2025 yillar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda eksport hajmi 15,1 mlrd AQSH dollaridan 33,8 mlrd dollarga oshib, 124 foizlik o'sish kuzatilgan. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishi 367,1 trln so'mdan 1 101,1 trln so'mga yetib, 200 foizdan ortiq o'sishni tashkil etgan. Qayta ishlash sanoatining ulushi 83,0 foizdan 86,0 foizga oshgani eksportning tarkibiy jihatdan takomillashayotganini ko'rsatadi. Eksport qiluvchi korxonalar sonining 5,2 mingdan 8,2 mingtagacha ortishi esa eksport faoliyatining institutsional bazasi kengayib borayotganini bildiradi. Ushbu natijalar eksport salohiyatini oshirishda sanoat rivoji va tarkibiy o'zgarishlar hal qiluvchi rol o'ynashini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-5286-son, 2017-yil 15-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017–2021-yillarda avtomobil sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-2692-son, 2016-yil 22-dekabr.
4. Aganbegyan A.G. Ekonomicheskoe razvitie i modernizatsiya Rossii. – Moskva: Delo, 2018. – 320 s.
5. Aghion P., Howitt P. Innovation and growth theory // Journal of Economic Growth. – 2021. – Vol. 26. – No. 1. – P. 1–30.
6. Shodmonov Sh. Milliy iqtisodiyot va tashqi savdo. – Toshkent: Fan, 2019. – 280 b.
7. Vahobov A. O'zbekiston iqtisodiyotida eksportni rivojlantirish omillari // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2020. – №2. – B. 33–41.